

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI  
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**  
**806 /22-261-LS – sonli**

“30” Avgust 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rmosari K.Ximmatkulov bir tomondan va **OOO AMIRSHOX STROY QURILISH MCHJ** (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi D. Axmedov ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 20.08.2022 yildagi 37070-tonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Samarqand shaxar Charmgari MFY Chilonzor ko'chasi ichki yulini joriy ta'mirlash (Uchastok №5 ul Sadridin Ayniy Kosiblar)** belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 1 584 151 (bir million besh yuz sakson to'rt ming bir yuz ellik bir so'mmi tashkil qiladi).

#### 3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10(o'n)bankkuniqidashartnomabahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiriladi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolnin amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiyatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

### 4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektidan foydalanan jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanan, «Bajaruvchi»ning roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi», tomonidan avans to'lovlar o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar ushgartiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

### 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rivoja qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xarajatlarni uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hoishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlar o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalari uchun muvofiq belgilanadi.

### 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlar ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarida bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnomaga tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom etirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom etirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

### 7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligi tabiat hodisalarini va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishimi muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonunyu to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarغا ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoni yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga maqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi» ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslami, jumladan yuridik va jismoni shaxslami mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi» ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiyatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiyatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukuki kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### "BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK  
Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy  
Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"  
L/s: 304521860184017045990118935  
STIR: 207254149  
MFO: 00312  
OKED: 70220



Direktor o'rindbosari:

K.Ximmatkulov

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantrilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist

Yurist \_\_\_\_\_

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010  
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi  
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1  
STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160  
Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi.


### "BAJARUVCHI"

Nomi: OOO "AMIRSHOX STROY QURAISH" MCHJ  
Manzili: Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Qorateri QFY Jo'raboy q/q  
Bank nomi: "KAPITALBANK" AT Samarqand filiali  
X/R: 20208000705095640002  
MFO: 01061  
STIR: 306542864  
OKED: 41202



Direktor:

A. Zahidov



## BAYONI

Samarqand shahri  
Raislik qiluvchi

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

K.Ximmatkulov

«25» 08 2022 y.

Sultanmuradov Elyor  
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinnbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod  
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim  
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich  
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i,  
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

### KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori K. Ximmatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quiydagi

1. Samarqand shaxar M.Shayxzoda MFY Bekabod 1-berk ko'chasi
2. Samarqand shaxar Angarolmos MFY Ichki yollarini
3. Samarqand shaxar Mirishkor MFY Abdurahmon Jomiy ko'chasini
4. Samarqand shaxar Charmgari MFY Chilonzor ko'chasini
5. Samarqand shaxar Ilmobod MFY 2-proyezd ko'chasini
6. Samarqand shaxar Ilmobod MFY Xamro markaziy ko'chasi
7. Samarqand shaxar Do'stlik MFY Ichki ko'chalar
8. Samarqand tumani Diyor MFY "Samarkand" ko'chasini
9. Bulung'ur tum Saxovat MFY Qum q/q 59 maktabga boruvchi ichki yulni
10. Pasdarg'om tumi Solpi qishlog'i 34-maktabga borish yo'llini
11. Pasdarg'om tumani Zarmon MFY Zarmon qishloq qabristoniga borish yo'lli
12. Pastdarg'om tuman Nayman MFY Lolazor ko'chasi
13. Samarqand tumani Diyor MFY "Toshkent" ko'chasi
14. Samarqand tumani Koziarik MFY Ichki yo'lli
15. Samarqand tumani Obod MFY Ichki yo'lli
16. Samarqand tumani Yangi obod MFY Ichki yo'llarini
17. Samarqand shaxar Chordara MFY Ichki yo'llini
18. Samarqand shaxar Nayman MFY Nayman Ichki yo'llini
19. Nisbot MFY Xolmuxammad Nurillayev 1 tor ko'chasini
20. Samarqand shaxar Charmgari MFY Kaftar proyezd 1 ko'chasini
21. Samarqand shaxar Charmgari MFY Charmgaron ko'chasini ichki yulni joriy ta'mirlash (Uchastok №4 ul Kaftar-vorota vodozabora)
22. Samarqand shaxar Bobur Mirzo ko'chasini
23. Samarqand shaxar Xaymar MFY Guliston ko'chasini
24. Samarqand shaxar O'zbekiston ko'chasini
25. Samarqand shaxar Nodirabegim ko'chasini
26. Samarqand shaxar Olimlar ko'chasini
27. Samarqand shaxar Umid ko'chasini
28. Samarqand shaxar Erkinlik ko'chasini
29. Samarqand shaxar Yangi yo'l-Lev Tolstoy va Chekov ko'chalarini
30. Samarqand shaxar Mo'lyonipoyon MFY dashtaki bolo ko'chasi 76-maktabga borish ichki yo'llini
31. Samarqand shaxar Ko'shbokoli MFY T.Zexniy proyezd 4 ko'chasini
32. Samarqand shaxar Afrosiyob MFY Maftuna A'zam ko'chasini
33. Samarqand shaxar Sharq Tongi MFY Oybek to'rtinchil yulak ko'chasini
34. Samarqand shaxar Tazar MFY Sarbadorlar 2-proyezdni ko'chasi
35. Samarqand shaxar Konigil MFY Xo'jalor ko'chasini
36. Samarqand shaxar Joysov MFY Sarbon ichki yo'llini
37. Shaxriobod MFY Oybek kuchasi asosiy ko'chasini
38. Qo'shabqolli MFY 23-maktabga borish yo'llini
39. Charmgari MFY Sayxun ko'chasini ichki yo'llini
40. Termez ko'chasini loyixa smeta xujjatlari ishlab chiqish
41. Andijoniy MFY ichki yo'lli
42. Ming Tut MFY Muazamxon ko'chasini
43. Xo'ja G'unjoish MFY Chingil ichki ko'chalarini
44. Xo'ja G'unjoish MFY Sharkobot ko'chasini
45. Shaxriobod MFY Mironova tupik (Axmedjanov kuch) ichki yo'llini
46. Yangi xayot MFY Ichki yo'llarini
47. Mirzo Bedil MFY, Buyuk Ipak Yo'lli ko'chasi 41-47 va 37-ko'p qavatlari uylar oldini
48. Muburok MFY Xujum ko'chalarini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlari tayyorlash uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 11 avgust O'zbekiston Respublikasi  
Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 avgustdag'i eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlarini komissiyasining elektron portalini orqali shakillangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan

"OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib

### YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-onli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'sratilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlarini elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlarini elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmag'anligi ma'lum uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolaring 2022 yil 23 avgustdag'i elektron bayonnomalariga asosan "OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olib "OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarni SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

### Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmuradov Elyor Erkinovich		Korxona bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i